



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI



## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul

INDUSTRY  
4.0



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

## Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

## Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

*MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI*





# ZIYORAT TURIZMINING IQTISODIY, EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRIGA OID MUAMMOLAR YECHIMIDA TERMINOLOGIYANING AHAMIYATI

**Malohat Jo'rayeva**

BuxMTI professori,  
filologiya fanlari doktori

**Shavkat Bafoyev**

BuxMTI tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati, ziyorat turizmi terminlarining tarixi va taraqqiyotini o'rGANISH, shuningdek, turizm rivojlanishining asosiy omillaridan biri millatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Kiyomizu-dera, Biodiversitet, Varanasi, Santiago de Compostela, Yerusalim Ziyorat turizmi, Haj, Umra, Piligrim, Kavod, diniy ziyorat, madaniy meros, tarixiy sayohat, muqaddas joylar, ziyoratgohlar.

**Abstract:** This article examines the significance of terminology in addressing issues related to the economic, ecological, and social impacts of pilgrimage tourism, the history and development of pilgrimage tourism terms, and the peculiarities of political, economic, and cultural cooperation between nations and peoples as one of the main factors in tourism development.

**Key words:** Kiyomizu-dera, Biodiversity, Varanasi, Santiago de Compostela, Jerusalem Pilgrimage tourism, Hajj, Umrah, Pilgrim, Kavod, Religious pilgrimage, Cultural heritage, Historical travel, Holy sites, Pilgrimage centers.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение терминологии в решении проблем, связанных с экономическим, экологическим и социальным воздействием паломнического туризма, история и развитие терминов паломнического туризма, а также особенности политического, экономического и культурного сотрудничества между нациями и народами как одного из основных факторов развития туризма.

**Ключевые слова:** Кийомидзу-дэра, Биоразнообразие, Варанаси, Сантьяго-де-Компостела, Иерусалим Паломнический туризм, Хадж, Умра, Пилигрим, Кавод, Религиозное паломничество, Культурное наследие, Историческое путешествие, Святые места, Паломнические центры.

## KIRISH

Aytish joizki, turizm mamlakat iqtisodiyoti rivojinining muhim omillaridan biri sanalib, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini kuchaytirishda ushbu sohaga ko'proq e'tibor qaratadi. Har doim insoniyatning diqqat markazida bo'lgan hamda keng taraqqiy topib borayotgan yo'naliishlardan biri ziyorat turizmi insonlarning diniy va ma'naviy e'tiqodlariga ko'ra muqaddas joylarga sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm shaklidir.



Ushbu turizm turi qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, ko'plab madaniy va diniy jahbalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ziyyarat turizmi Yangi O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'naliishlaridan biri sanalib, mamlakatimizda bu borada qator ishlar amalga oshirilmoxda. Qolaversa, yurtimizda turizm rivojlanishining asosiy omillaridan biri millatlar va xalqlar o'rtaсидаги о'заро siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik, shuningdek, tinchlik-totuvlik, bag'rikenglik, qolaversa, o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlikning mavjudligi hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyottardagi turizm tizimi, uning xususiyatlari va elementlari bilan bog'liq ilmiy qarash va yondashuvlar tahlil qilindi. Xususan, T.V. Cherevichkoning "Turizm tizim sifatida: tadqiqot metodologiyasi" nomli tadqiqotida "Turizm tizimining obyekti turistik hudud hisoblanadi" deya ta'kidlagan[1].

Yu.Yu. Shvets "Turizm sektorining tizim sifatida tafsiflashning asosiy yondashuvlari" asarida turizm bozori subyektlari, turizm turlari, maqsadga ko'ra turizmning klassifikatsiyasini tahlil qilgan. I. Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.S. Safarovning "Turizm asoslari" darsligida turizmning tizim sifatidagi asosiy yo'naliishlariga oid tushuncha va atamalar tasniflangan[2].

Bundan tashqari, bir qator olimlar ziyyarat turizmining elementlariga doir tadqiqotlar olib borgan. Masalan, A. Babkin "Turizmning maxsus turlari" nomli asarida diniy va ziyyarat turizmiga oid ilmiy qarashlarini bildirib o'tgan[3].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

### Tahlil va natija

Yangi O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan turizm sohasida mustahkam aloqalar o'rnatishi va rivojlanishi, yurtimizga turistlar oqimining kirib kelishini ko'paytirish bilan birga ularga xizmat ko'r-satish uchun barcha sharoitlarni yaratish, xizmat ko'r-satish sifati va madaniyatini oshirish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, turistik industriyani tashkil qilish va rivojlanirish, soha bo'yicha kadrlar tayyorlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar takomillashtib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlanirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni<sup>1</sup> qabul qilindi.

Unda turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikasiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyyarat turizm muhitini yaratish, transport yo'naliishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlashga yo'naltirilgan vazifalar belgilab olinganligi turtki bo'lди, desak mubolaga bo'lmaydi.

Dunyoning ko'plab davlatlarida mazkur iqtisodiyot tarmog'ining taraqqiy etishi, tegishli infratuzilmani jahon standartlari darajasiga yetkazish va turistlar oqimini yanada oshirish bo'yicha o'ziga xos strategik rejalar ishlab chiqilganligi barobarida yutimizda ziyyarat turizmi sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmning ushbu yo'naliishini boshqarish samaradorligini oshirish, rasmiy huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan turizm terminlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Ziyyarat turizmi terminlarining tarixiy taraqqiyoti bu sohaning lingvistik va madaniy rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotchilar, balki ziyyarat turizmi bilan shug'ullanuvchi amaliyotchilar uchun ham muhimdir.

Ma'lumki, til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, termin va terminologiyaning o'r-ganish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda yetakchi o'rinda tilni anglash emas, balki til, madaniyat va shaxsnинг о'заро munosabatlarini o'rganish taqozo etiladi, bir-birini tushunish muammosi o'rta ga tushadi.

Ko'rsatilgan uchlikning: "Til, madaniyat va shaxsning о'заро munosabati tilning milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, terminlarning tillararo chog'ishtirib o'rganilishi, ularning derivatsion jihatlari tahlili kabi masalalar yuzasidagi tadqiqotlar alohida o'rinn tutadi".

Termin va terminotizim tushunchasiga juda ko'plab ta'riflar keltirilganligiga qaramasdan, uning to'liq mazmuniy mohiyati butunlay aniqlanganicha yo'q, chunki terminlar majmui "terminologiya" deb ataladi va u har bir sohaga doir kasbiy bilimlarni ifodalovchi tushunchalar asosida shakllanadi, shuningdek, terminologiya u yoki bu sohaga doir terminlar tizimini shakllantiradi.

<sup>1</sup> lex.uz/docs/-5283956



Qolaversa, tilshunoslikda yangi terminlarning kirib kelishi yangi imkoniyatlarni ochadi, imkoniyatlarni ochish barobarda o‘ziga xos qiyinchiliklarni paydo qiladi. Termin va terminologiyaning mohiyatini anglash, uning ma’nosini aniq tushunish uchun, avvalo, uning semasi umumtildagi so‘z bilan qiyoslanishiga e’tibor qaratish lozim.

Terminlarning tilshunoslikda aks etishi davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib, yangi ilmiy-nazariy qarashlar, yangi so‘z va iboralar paydo bo‘laveradi. Ayniqsa, hozirgi ilm, fan va texnikaning jadallik bilan taraqqiy etayotgan bir davrda terminlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, terminologiya xususida tadqiqotlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmining terminologiyasi ham vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, o‘ziga xos tarixiy va lingvistik o‘zgarish-larga duch kelgan. Dastlabki davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida ziyorat turizmi bilan bog‘liq terminlarning shakllanganligi, ularning mazmuni va qo‘llanilishi tahlil qilishda turli madaniyatlar va dirlar ziyorat turizmi terminologiyasiga ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Barchaga ma’lumki, mamlakatimizda turizm rivojlanishining asosiy omillaridan biri millatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik, shuningdek, tinchlik-totuvlik, bag‘rikenglik, qolaversa, o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlikning mavjudligi hisoblanadi. Yurtimiz azaldan o‘zining ajib va turfa tabiat, boy tarixi, me’moriy obidalari, buyuk allomalari bilan jahon mamlakatlari aholisini o‘ziga jalb etmoqda. Shu bois biz mazkur maqolada barcha sohalarda terminlarning xususiyatlari, ayniqsa, ziyorat turizmi terminlarining o‘rganishini ushbu turizm jihatlarini yanada kengroq va chuqur anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Terminologiya metaforik va metonimik ko‘chim orqali amalga oshiriladigan terminologik soha uchun tilning lisoniy birligining semasiologiyasiga e’tibor qaratish, struktur-semantik shakllanishida xizmat qiladi. Metaforik birikmalar asosida yaratilgan narsaning ko‘zga ko‘rinmaydigan narsalarni tushuntirish, bilish va anglashga yordam beradi.

Bilamizki, ziyorat turizmi, odatda, diniy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega muayyan joylarni ziyorat qilish uchun amalga oshiriladigan sayohatlarni anglatadi.

Ziyorat turizmning dunyoning ayrim mamlakatlari va mintaqalari iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, diniy markazlarning o‘ziga ta’siri juda yuqori. Buning sababi, ziyoratchilarining safarda olgan pullarining salmoqli qismini mezbon mamlakatda qoldirishlaridir. Bundan tashqari, ziyorat ko‘p minglab mahalliy aholiga daromad keltiradi.

Bu turizm turi ko‘p asrlar davomida dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va hozirda ham juda mashhurdir. Ziyorat turizmining assosiy jihatlari va uning turli dinlardagi ahamiyati haqida quyida batafsil ma’lumot beriladi.

#### 1. Islom:

Haj: Har bir musulmon uchun hayotida kamida bir marta amalga oshirilishi farz bo‘lgan ibodatdir. Haj ziyorati Makkadagi Ka’ba atrofida amalga oshiriladi va Islomning beshta ustunidan birdir.

Umra: Hajdan tashqari, musulmonlar istalgan vaqtida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan yana bir ziyorat turi. Bu ham Makkada, biroq Haj mavsumidan tashqari vaqtarda amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

#### 2. Xristianlik:

Yerusalim: Iso Masihning hayoti va azob-uqubatlarining markazi bo‘lgan muqaddas shahardir.

Vatikan: Katolik dunyosining markazi va Rim Papasi yashaydigan joydir.

Santiago de Compostela: Ispaniyada joylashgan va “Muqaddas Yo’l”(Camino de Santiago) bilan mashhur bo‘lgan ziyoratgoh.

#### 3. Buddizm:

Bodh Gaya: Buddha Gautama bodhi daraxti ostida o‘zining nihoyatdagи o‘ngni (nirvana) topgan joydir.

Lumbini: Buddha tavallud topgan joy, hozirgi Nepal hududida joylashgan.

#### 4. Yahudiylilik:

Qabriston devori: Yerusalimda joylashgan va Yahudiylar uchun muhim ibodat va ziyorat joyi.

Madaniy va tarixiy ahamiyatiga kelsak, ziyorat turizmi nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki ko‘plab madaniy va tarixiy obidalarni o‘z ichiga oladi. Bu obidalar, o‘z navbatida, milliy identifikasiya, tarixiy meros va madaniy an’analarning saqlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ziyorat turizmining o‘sishi ba’zan salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Masalan, ommaviy ziyoratlar atrof-muhitga zarar yetkazishi, mahalliy aholining turmush tarziga ta’sir qilishi va resurslarni taqsimlashda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli barqaror turizm yondashuvlari va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmi, turli xil diniy va madaniy an’analarni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ko‘p hollarda ziyorat joylari madaniy merosning bir qismi sifatida qadrlanadi va bu joylarni saqlab qolish uchun harakatlar amalga oshiriladi. Masalan:

<sup>2</sup> [uz.wikipedia](https://uz.wikipedia.org).



Hindistonda Varanasi: Bu shahar Hinduizmning muhim markazlaridan biri hisoblanadi va uzoq tarixiy o't-mishga ega. Varanasida joylashgan Ganga daryosi bo'yidagi ghats (poklanish joylari) minglab ziyoratchilarni jalg qiladi, bu esa mahalliy hukumat va xalqaro tashkilotlarni ushbu tarixiy joylarni saqlab qolishga undaydi.

Yaponiyada Kiyomizu-dera: Bu Buddhist ibodatxonasi Kyoto shahrida joylashgan bo'lib, uning tarixi 1200 yildan ortiqni tashkil qiladi. Kiyomizu-dera, YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ziyo-ratchilarning doimiy oqimi tufayli uning tarixiy va madaniy ahamiyati yuqori baholanadi.

Ziyorat turizmi tarixiy voqealarni o'rganish va ularga chuqurroq tushunish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Ziyoratchilar ziyorat qilinayotgan joylarning tarixi haqida bilim olishadi va bu bilimlar orqali o'z milliy va madaniy identifikatlarini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Isroi va Falastinda Yerusilim: Uchta asosiy monoteistik din – Yahudiylik, Xristianlik va Islom uchun muqaddas hisoblanadi. Turli din vakillari uchun Yerusilimning ziyorat qilinishi, bu shaharning tarixiy voqealari va diniy ahamiyati haqida chuqurroq bilim beradi.

Santiago de Compostela: Ispaniyada joylashgan ushbu ziyoratgohga dunyo bo'ylab turli millat vakillari keladi. Ular Camino de Santiago deb ataluvchi ziyorat yo'lini bosib o'tishadi, bu esa turli madaniyatlar o'rtasida noyob almashinuv va muloqotni ta'minlaydi.

Umuman olganda, ziyorat turizmi tarixiy bilimlarni boyitish, madaniy merosni saqlab qolish va milliy hamda madaniy tushunishni chuqurlashtirishda muhim o'r'in egallaydi. *Iqtisodiy ta'sir*. Ziyorat turizmi mahalliy iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Ziyoratchilar turli xizmatlar va mahsulotlar uchun pul sarflashadi, bu esa turizm sohasida yangi ish o'rirlari yaratilishiga va daromad oshishiga olib keladi. Shuningdek, bu turizm turi infratuzilma rivojlanishini rag'batlantiradi, masalan, transport, mehmonxonalar va savdo markazlari kabi.

*Ekologik va sotsial ta'siri*. Ziyorat turizmining ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar juda dolzarbdir. Bu turizm turi katta miqdorda ziyoratchilarni jalg qilishi bilan birga atrof-muhitga, mahalliy jamoalar hayotiga va madaniyati hamda iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Quyida ushbu ta'sirlar haqida batafsil ma'lumot beriladi[4].

#### Ekologik ta'siri

##### Atrof-muhitning ifloslanishi:

Katta miqdordagi ziyoratchilar ko'p miqdorda chiqindi va axlatlarni keltirib chiqaradi, bu esa joylarda suv va tuproq ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Ganga daryosi bo'yidagi ghatslarda kundalik rituallar va ko'p miqdorda ziyoratchilar tufayli suv sifati keskin yomonlashgan.

Ko'plab ziyorat joylarida suv, o'tin va boshqa tabiiy resurslarning ortiqcha iste'moli kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa, qurg'oqchilikka moyil hududlarda ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

##### Biodiversitetga ta'siri:

Yovvoyi hayotning buzilishi nazarda tutiladi, bunda ziyoratchilar tomonidan olib boriladigan faoliyatlar, shuningdek, turarjoylar va savdo markazlari qurilishi tabiiy yashash muhitini buzadi, bu, o'z navbatida, mahalliy flora va fauna uchun salbiy oqibatlarga olib keladi[5].

##### Ijtimoiy ta'siri

##### Madaniy integratsiya va konfliktlar:

Madaniy ta'sir: ziyorat turizmi mahalliy madaniyatga katta ta'sir ko'rsatadi, bu ba'zan mahalliy urf-odatlarni saqlab qolish va ziyoratchilarning ta'sirini muvozanatlash orasidagi konfliktni keltirib chiqaradi. Masalan, ziyoratchilar olib keladigan modern madaniyat unsurlari an'anaviy qadriyatlarga ta'sir qilishi mumkin.

Ijtimoiy konfliktlar: ba'zan ziyoratchilar va mahalliy aholi o'rtasida resurslarni (masalan, suv va yashash joyi) taqsimlash bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, resurslar cheklangan joylarda kuchli seziladi[6].

##### Iqtisodiy o'zgarishlar:

Bozor narxlari: ziyoratchilarning ko'p miqdorda kelishi mahalliy bozor narxlaringin oshishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa mahalliy aholi uchun kundalik hayotni qimmatlashtirishi mumkin.

Ish o'rirlari va daromadlar: Ziyorat turizmi yangi ish o'rirlari yaratish imkonini beradi, lekin bu ishlarni mavsumiy bo'lib, doimiy emas. Shuningdek, turizm daromadlari ko'pincha noqonuniy ravishda taqsimlanishi yoki mahalliy aholi o'rtasida teng bo'limgan holda taqsimlanishi mumkin[7].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmining ekologik va ijtimoiy ta'sirlari chuqur o'rganilishi va bu borada samarali yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Bu esa nafaqat mahalliy aholi va atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki turizmning ijobiyligi ta'sirlarini ham maksimal darajada oshiradi.

Ziyorat turizmi turli millat va madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirishda va o'zaro tushunishni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ziyoratchilar turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'zaro hurmat va tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.



Mazkur turizmining madaniy va tarixiy ahamiyati juda chuqur ildizlarga ega va turli madaniyatlarda turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu turizm turi madaniy merojni saqlash, tarixiy bilimlarni boyitish va milliy identifikatsiyani mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekistonimiz azaldan o'zining ajib va turfa tabiatni, boy tarixi, me'moriy obidalari, buyuk allomalari bilan jahon mamlakatlari aholisini o'ziga jalb etib keladi. Binobarin, ziyorat turizmi insoniyatning diniy, madaniy va tarixiy qadriyatlarini anglashda muhim rol o'ynaydi va uning kelajagi turizm sohasida muhim o'rinn tutadi, shuningdek, bu boradagi terminlarni ham tadqiq etishga chorlaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Черевичко Татьяна Викторовна. Туризм как система: методология исследования. Концепт 7 (2015): 6-10.
2. Швец Юрий Юрьевич. "Основные подходы к характеристике сферы туризма, как системы." Армия и общество .
3. Tuxliyev I., Hayitboyev R., Safarov B. S. & Tursunova,G. R. (2012). Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. T.
4. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008.
5. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты. Современные проблемы науки и образования 6 (2014): 572-572.
6. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма. Символ науки 10–3 (2016): 192–194.
7. Худояров А. Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантиришнинг ташкилийиқтисодий механизmlари: Моно-графия / Тошкент: ООО "Complex Print", 2021. –304 б.
8. Концепции, определения и классификация для статистики туризма: Техническое пособие № 1: Рекомендации по статистике туризма ВТО. Всемирная туристская организация. Мадрид, 1995. С. 126.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoev</b>	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limiň tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов</b>	
Tуризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiyligi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatlari, energiya samarador shamlar turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... Мухамадиева Зарина Баходировна	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ..... Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	132

# MUNDARIJA SODEPZHAHNIYE CONTENTS

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.